ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Rajabova Zebo Umar qizi

94.007.90.81

zeborajabova2004@gmail.com

FINLYANDIYA TA’LIM TIZIMI ASOSIDA UMUMTA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada umumta’lim tizimini takomillashtirish va o‘quvchilar bilimini baholashda xorijiy tajribalarni qo‘llash masalalari Finlyandiya ta’lim tizimi misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda Finlyandiya ta’limining asosiy tamoyillari, baholash tizimi, o‘quv dasturlari hamda o‘qituvchilarning kasbiy mustaqilligi kabi jihatlar yoritilgan. Shuningdek, PIRLS va PISA kabi xalqaro baholash dasturlaridagi Finlyandiya natijalari tahlil qilinib, ularning yuqori samaradorligi sabablari ochib berilgan. Maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishda Finlyandiya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqilgan. Xususan, formatif baholashni joriy etish, o‘qituvchi mustaqilligini oshirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish hamda o‘quvchilarning individual yondashuv asosida baholanishi kabi yo‘nalishlar taklif etilgan. Tadqiqot natijalari milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda xorijiy tajribaning ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so‘zlari: umumta’lim tizimi, Finlyandiya ta’lim tizimi, xalqaro tajriba, PIRLS, PISA, baholash tizimi, formatif baholash, kompetensiyaviy yondashuv, savodxonlik, o‘quv dasturi, o‘qituvchi mustaqilligi, ta’lim sifati, O‘zbekiston ta’limi, milliy o‘quv dasturi, o‘quvchi rivojlanishi

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimi mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim bosqichi shaxsning intellektual, ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitida turli mamlakatlarning ta’lim tizimlarini qiyosiy o‘rganish, ilg‘or tajribalarni tahlil qilish hamda ularni milliy sharoitga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, Finlyandiya ta’lim tizimi jahonda eng samarali va adolatli tizimlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur tizim yuqori natijalarga erishgan holda, o‘quvchilarda ortiqcha stress, keskin raqobat hamda haddan tashqari test yuklamalarini yuzaga keltirmasligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Finlyandiya umumiy o‘rta ta’lim tizimining asosiy tamoyillari, baholash mexanizmlari hamda ularning O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ahamiyati tahlil etiladi.

Baholash jarayonida o‘quvchining individual rivojlanish dinamikasi inobatga olinadi. Bunda o‘quvchilar o‘zaro taqqoslanmaydi, aksincha ularning natijalari avvalgi ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy baholanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o‘quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, baholash tizimini rivojlantirish hamda xalqaro tajribalarni joriy etish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Shunga qaramay, ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, test sinovlariga

ortiqcha tayanish, baholashda asosan yakuniy natijalarga e’tibor qaratilishi hamda individual yondashuvning yetarli darajada rivojlanmaganligi shular jumlasidandir.

Shu bois, Finlyandiya tajribasidan quyidagi jihatlarni moslashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi: formatif baholashni keng joriy etish, o‘qituvchilarning kasbiy mustaqilligini oshirish, baholashni rivojlantiruvchi mexanizm sifatida qo‘llash hamda o‘quvchilarning psixologik holatini hisobga olish. Xorijiy tajribani moslashtirishning muhim shartlari sifatida esa milliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, mavjud resurslar va imkoniyatlarga tayanish hamda islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur hisoblanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Finlyandiya ta’lim tizimining eng muhim ustun jihatlaridan biri maktab tizimining samarali tashkil etilganidadir. Ushbu mamlakatda maktablarni muntazam tekshirish yoki standartlashtirilgan test sinovlari amaliyoti mavjud emas. Shuningdek, maktablar o‘zaro raqobatga kirishmaydi. Bu holat ta’lim tizimida shakllangan ishonch muhitining natijasi bo‘lib, maktablar turli tekshiruv tashriflaridan holi faoliyat yuritadi. Finlyandiyada “eng yaxshi maktab — bu uyga yaqin maktab” degan tamoyil amal qiladi, bu esa barcha maktablarda ta’lim sifati deyarli bir xil darajada ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur tizim bilimga asoslangan jamiyatni shakllantirish, ta’limda tenglikni ta’minlash g‘oyalariga tayanadi. Tenglik, ishonch, o‘qituvchilarning yuqori salohiyati, ixtiyoriylik, individuallik, mustaqillik va amaliylik kabi tamoyillar asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bilan birga, ta’lim oluvchilarning fikrlarini hurmat qilish va qo‘llab-quvvatlash muhim pedagogik yondashuv sifatida qaraladi. Ushbu jihatlar O‘zbekiston ta’lim tizimida ham samarali qo‘llanishi mumkin.

Finlyandiyada pedagoglik kasbi yuqori nufuzga ega bo‘lib, o‘qituvchilarning ta’limi va malaka oshirishiga alohida e’tibor qaratiladi. Ta’lim tizimidagi islohotlarning asosiy tashabbuskorlari ham aynan o‘qituvchilardir. Ular milliy o‘quv dasturini boyitish, unga o‘zgartirishlar kiritish yoki uni qayta shakllantirish huquqiga ega. Milliy dastur umumiy yo‘nalish sifatida beriladi, uning mazmunini boyitish va takomillashtirish esa professor-o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, Finlyandiyada pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi yuqori darajada rivojlangan. Jumladan, Yuvaskula universiteti pedagoglar tayyorlash bo‘yicha yetakchi ilmiy markazlardan biri hisoblanadi. Ushbu universitetda o‘quv va ishchi dasturlar professor-o‘qituvchilar tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi hamda ular mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega. Yangi yo‘nalish yoki fakultet ochish masalalari esa tegishli tartibda Ta’lim vazirligi bilan kelishiladi.

Universitet infratuzilmasi, xususan, kutubxona faoliyati ham alohida e’tiborga loyiq. Kutubxonada ilmiy izlanishlar olib borish uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan bo‘lib, unda elektron resurslar, kompyuter zallari va qo‘shimcha xizmatlar mavjud. Kutubxona qoshida ilmiy va ta’limiy xizmatlar markazlari faoliyat yuritib, tadqiqotchilarga maqolalarni nashr etish, texnik jihatdan tayyorlash kabi xizmatlar ko‘rsatadi. Bundan tashqari, kutubxonada ochiqlik siyosati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, barcha ilmiy ishlar maxsus platformalarda joylashtiriladi va ulardan erkin foydalanish imkoniyati yaratilgan. Foydalanuvchilar uchun maxsus treninglar tashkil etilib, ularda kutubxonadan foydalanish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Shu bilan birga, ilmiy nashrlar bilan ishlashni muvofiqlashtiruvchi mutaxassislar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Kutubxona xodimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar asosida esa sun’iy intellekt, virtual muhit kabi zamonaviy yo‘nalishlarni ta’lim dasturlariga kiritish rejalashtirilmoqda.

TADQIQOT NATIJALARI

Finlyandiya ta’lim tizimi tajribasi asosida o‘quvchilar bilimini baholashni takomillashtirishda asosiy e’tibor raqobatdan ko‘ra hamkorlik, o‘qituvchilarning yuqori salohiyati va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga qaratiladi. Baholash jarayonida faqat imtihon emas, balki shakllantiruvchi baholash (feedback) va o‘quvchining o‘z-o‘zini baholashi muhim hisoblanadi.

Finlyandiya tajribasining asosiy tamoyillari va o‘zlashtirish masalalari:

- **O‘qituvchi kasbining nufuzi:** Finlyandiyada o‘qituvchilar yuqori malakali (magistr darajasi) va o‘z ishida to‘liq erkindir. O‘quvchilarni baholashda standart testlardan ko‘ra o‘qituvchining professional fikri muhimroq.
- **Kamroq imtihon, ko‘proq rivojlanish:** Finlyandiyada boshlang‘ich sinflarda ball qo‘yish tizimi deyarli yo‘q, maqsad o‘quvchini qo‘rqitish emas, balki uni o‘qishga motivatsiya qilishdir.
- **Teng imkoniyatlar:** Ta’lim tizimi barcha o‘quvchilar uchun bir xil yuqori sifatli ta’limni kafolatlaydi.
- **O‘quvchining o‘z-o‘zini baholashi:** O‘quvchilar o‘z bilimlarini tahlil qilishni va kamchiliklari ustida ishlashni o‘rganishadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimiga joriy etish yo‘nalishlari:

1. **Baholash tizimini o`zgartirish:** Ball tizimidan (rating) qaytivchi (formative assessment) tizimga bosqichma-bosqich o‘tish.
2. **O`qituvchi mustaqilligini oshirish:** O‘qituvchilarga o‘quv dasturlarini moslashtirish va baholashda erkinlik berish.
3. **Interfaol metodlar:** Darslarda loyiha ishlari va jamoaviy ishlashni ko‘paytirish.

Finlyandiya tajribasini to‘liq ko‘chirib olish maqsadga muvofiq emas. Uni milliy madaniyat, ijtimoiy sharoit hamda iqtisodiy imkoniyatlarga moslashtirish zarur hisoblanadi. Shu maqsadda quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish lozim: pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish, baholash mezonlarini qayta ko‘rib chiqish, ota-onalar va jamiyatda baholash madaniyatini shakllantirish hamda maktab muhitini qo‘llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi muhitga aylantirish.

MUHOKAMA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida har bir fuqaroning bilim olish huquqiga egaligi, bepul umumiy ta’lim davlat tomonidan kafolatlanishi hamda maktab faoliyati davlat nazoratida olib borilishi belgilab qo‘yilgan. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi tegishli vazirlik tomonidan boshqarilib, hududiy boshqarmalar hamda tuman va shahar bo‘limlari orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standartlariga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatiladi va metodik-amaliy yordam ko‘rsatiladi.

Finlyandiya esa 2011-yildan buyon PIRLS xalqaro tadqiqotida muntazam ishtirok etib kelmoqda. Mazkur tadqiqot o‘qish savodxonligini baholash orqali ta’lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, PIRLS natijalari asosiy va o‘rta ta’lim bo‘yicha milliy o‘quv dasturlarini takomillashtirish hamda milliy savodxonlik strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, Finlyandiya boshqa xalqaro baholash dasturlarida ham faol qatnashadi. Jumladan, Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladigan PIRLS va ICILS tadqiqotlari, shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o‘tkaziladigan PISA dasturi

orqali o‘quvchilarning bilim darajasi muntazam ravishda monitoring qilinadi. Ushbu baholashlar o‘quv dasturlari va ta’lim maqsadlarini yangilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda Finlyandiyada savodxonlikni rivojlantirish, ayniqsa o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirishga qaratilgan ko‘plab tashabbuslar amalga oshirilgan. O‘n yil davomida 40 dan ortiq loyiha va kasbiy rivojlanish dasturlari, jumladan, “Milliy o‘qish tashabbuslari” kabi dasturlar joriy etilgan. 2017-yilda Ta’lim va madaniyat vazirligi tomonidan bolalar savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan ko‘rsatmalar ishlab chiqilib, Milliy savodxonlik forumi tashkil etilgan. Ushbu tashabbuslar keyinchalik Finlyandiya Milliy ta’lim agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan Savodxonlik harakati dasturi orqali davom ettirilmoqda.

Finlyandiya PIRLS tadqiqotlarida yuqori natijalarni qayd etgan. Xususan, 2011-yilda 45 mamlakat orasida 567 ball bilan 3-o‘rinni, 2016-yilda esa 50 mamlakat ichida 566 ball bilan 5-o‘rinni egallagan. Ushbu natijalar fin o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi, ayniqsa matnni chuqur va tahliliy tushunish darajasi yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur dastur asosida Finlyandiyaning ilk Milliy savodxonlik strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi savodxonlik ko‘nikmalarining barcha sohalardagi ahamiyatini e’tirof etish va ularni amaliy jihatdan rivojlantirishdan iborat. Natijada har bir shaxs o‘z savodxonlik darajasini butun hayoti davomida qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Strategiya, ayniqsa, ko‘p savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirishga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston esa PIRLS xalqaro tadqiqotida ilk bor 2021-yilda ishtirok etdi. Mazkur tadqiqot natijalari Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi hamda Boston kolleji tomonidan 2023-yil 16-may kuni rasman e’lon qilingan.

PIRLS–2021 doirasidagi sinov tadqiqotlari dastlab 2020-yil aprel–may oylariga rejalashtirilgan edi. Biroq COVID-19 pandemiyasi sababli jarayon keyinga qoldirilib, 2020-yil noyabr oyida o‘tkazildi. Sinovlar mamlakatning 11 hududidagi 28 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jami 1400 nafar o‘quvchi ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonlari o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida amalga oshirildi hamda Butunjahon ta’lim yutuqlarini baholash assotsiatsiyasi tomonidan muvofiqlashtirildi.

Finlyandiyada boshlang‘ich ta’lim bosqichida til va o‘qish fanlariga oid o‘quv dasturlari zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan. 2014-yildan boshlab asosiy ta’lim uchun yangilangan o‘quv dasturi qabul qilinib, 2016-yildan amaliyotga joriy etilgan. Ushbu dastur har bir fan bo‘yicha aniq o‘quv maqsadlarini belgilaydi hamda mazmunni umumiy darajada tavsiflab beradi.

Yangilangan o‘quv dasturining muhim jihati shundaki, unda barcha fanlarni integratsiyalovchi yetti asosiy ko‘ndalang kompetensiya yo‘nalishlari belgilangan. Ular quyidagilardan iborat: fikrlash va o‘rganishni rivojlantirish, madaniy kompetensiya hamda muloqot va o‘zini ifodalash ko‘nikmalari, o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish va kundalik hayotni boshqarish, turli savodxonlik turlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasi, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik va tadbirkorlik, shuningdek, jamiyat hayotida faol ishtirok etish hamda barqaror kelajakni qurishga yo‘naltirilgan kompetensiyalar.

Shuningdek, Finlyandiya ta’lim tizimida o‘quvchilarning rivojlanish jarayoni doimiy monitoring qilinadi. Agar o‘quvchining tarbiyasida yoki o‘zlashtirishida muayyan qiyinchiliklar kuzatilsa, muammo faqat o‘quvchining o‘zi bilan ishlash orqali emas, balki uning ota-onasi yoki vasiylari bilan hamkorlikda hal etiladi. Bunda qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil etilib,

o‘quvchining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga kompleks yondashuv qo‘llaniladi.

XULOSA

Mazkur maqolada umumta’lim tizimini takomillashtirishda xorijiy tajribalardan, xususan Finlyandiya ta’lim tizimidan foydalanish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, Finlyandiya ta’lim tizimi tenglik, ishonch, o‘qituvchi mustaqilligi va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslangan bo‘lib, yuqori ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlaydi. Finlyandiya tajribasida baholash jarayoni o‘quvchining individual rivojlanishiga yo‘naltirilganligi, test bosimining kamaytirilishi hamda formatif baholashning ustuvorligi ta’lim jarayonining insonparvarlik tamoyillariga asoslanganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘qituvchilarning yuqori kasbiy salohiyati va ularning ta’lim jarayonidagi mustaqilligi tizim muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, formatif baholashni keng joriy etish, o‘qituvchilar mustaqilligini oshirish, interfaol metodlardan foydalanish hamda o‘quvchilarning psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olish ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, Finlyandiya tajribasini chuqur o‘rganish va uni milliy ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirish O‘zbekistonda ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoynazarova Muxlisa Baxadirovna “LOYIHALARGA INNOVATSIYALARNI JALB ETISH JARAYONLARI.” WOS Journals, Vol.6.No2.2025
2. Rashidova Marjona Sadriddin qizi. "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun noodatiy darslarni rejalashtirish va o'tkazish".
3. Ilm fan xabarnomasi jurnali. Vol.5 No.1.2024
4. Xudoynazarova Muxlisa Baxadirovna BOSHLANG’ICH SINFLARDA ZAMONAVIY METODLAR VA KREATIVLIGNI SHAKILLANTIRISH“Article Title.” JELSİ, Vol.2. No.11.2024
5. Qodirov, F. ., Qilichova, B., & Ziyotova, M. . (2024). NOAN’ANAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI O‘RNI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования,In academy 23(50).3(10), 28–33,2024
6. Raimova, Dilfuza Abdinabiyevna. "TIL-ALOQA VOSITASI." Educational Research in Universal Sciences 2.16 (2023): 128-130.
7. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, 2020 yil 23 sentabr, O‘RQ – 637;
8. Xalqaro ta’lim assotsasiyasi (IEA)ning PIRLS bo‘yicha internet bazasi ma’lumotlaridan foydalanildi.